

**TARIX FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM
TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING AHAMIYATI**

Yakubova Sitora Sharifovna

BMTI akademik litseyi yetakchi o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kechayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar, xususan, 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning muhim ustivor yo'nalishlariga asoslangan Harakatlar strategiyasida o'sib kelayotgan avlodni jismoniy sog'lom, ruhiy hamda intellektual fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash bilan birga bolalar va navqiron avlodlar o'rtasida kitobga mehr qo'yish orqali ongu tafakkurini yuksaltirish hamda matematik, informatik, tabiiy bilimlarni yuksaltirish muhim mezon sifatida belgilangan.[1] O'quvchilarning ijtimoiy fanlarni o'rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o'qituvchi tomonidan tashkil ettirilishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, ularning zehniy qobiliyatlarini ishga soladigan usullarni tatbiq eta olsa, o'quvchilar o'sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o'qituvchi o'quvchilar o'rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o'quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o'quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi.

Hozirgi innovatsion ta'lim, o'quvchilardan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan birga, ulardan aqliy faoliyat usullarni ham egallab borishni talab etadi. Bilimlarni egallash va ularni turli amaliy ishlarda tatbiq etish jarayonida, ya'ni ikkita tabiiy ob'ektni qiyoslashda, ulardagi umumiylik va tafovutlarni aniqlashda, xarita va boshqa bilim manbalari asosida tabiiy tasnifini tuzishda o'quvchilar turli ko'nikma va malakalarni tatbiq etadilar.

Tarix fanini o'qitishda o'quvchilarni tarixiy rivojlanishga qiziqтира olish katta ahamiyatga ega. Bilishga qiziqish o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, xotirani kuchaytiradi, fikrni rivojlantiradi.

Maktabda o'quvchilarning ijodiy hamda bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil bilim olish yo'llarini o'rganish, egallangan bilim va ko'nikmalarni yangi sharoitda tatbiq eta olish – muammoli ta'lim deb yuritila boshlandi.

“Muammoli” termini ta'lim nazariyasi va amaliyotida ta'lim metodi, ta'lim jarayoni va ta'limga yondashishi tarzida qo'llanila boshlandi. “Muammoli” ta'lim – bu, avvalo, yangi ilmiy bilimlarni egallash “texnologiyasi” bilan o'quvchilarni tanishtirishdan iboratdir. Yuqoridagi tadbirlar ta'limning barcha metod va vositalari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Umuman, muammoli ta'lim – tarix fanini o'qitishda o'quvchilar ongini rivojlantirishiga, samarali fikrlashga, ijodiy mustaqillikka imkon beradi. Muammoli ta'limda o'quvchilar oldiga muayyan muammolar (hal qilinishi talab etiladigan muayyan masala, muammolar) qo'yiladi, bu muammolarni o'quvchilar mustaqil hal etadilar.

Muammoli vaziyat metodini qo'llashda o'qitish mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi va muammoni bayon qiladi. Uni o'tkazish uslubiyati quyidagicha:

1. O'quvchiga muammo, topshiriq yoki chalkash masala qo'yiladi va savollar beriladi. Masalan. Nima deb o'ylaysiz?. Fikringiz qanaqa?. Sizningcha qanday?. Bu kabi savollar o'quvchi o'z nuqtai-nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.
2. O'quvchiga o'z nuqtai-nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.
3. O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtai-nazarini aniqlab olish uchun savollar beriladi. Masalan. Nega bunday deb o'ylaysiz?. Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?
4. O'qitish ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo'lgan o'quvchiga so'zlash imkoniyatini beradi. Savollarni beradi. Masalan. Kimda boshqa fikr bor, nega?. Kim aytilgan fikrni maqullamaydi, nega?
5. O'qitish o'quvchi bilan birgalikda turli nuqtai-nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi. Savollar beradi. Masalan. Nega

boshqa o'quvchining nuqtai-nazarini ma'qullamaysiz?. O'z nuqtai-nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6. Muammoni topshiriq, masala, chalkash masala bo'yicha qabul qilingan qarorga o'quvchi tomonidan o'z nuqtai-nazarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi. Savollar beriladi. Masalan. Sizningcha, kimning nuqtai-nazari eng maqbul?. Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo'l bilan chiqish ma'qulroq?

Psixologlarning fikriga ko'ra fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan, qarama-qarshilikdan boshlanadi [2]. Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni hal etishda aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishga e'tibor berish lozim.

Muammoli vaziyatni bir nechta asoslarga ajratish mumkin: ilmiy bilimlar sohasi yoki o'quv fani (tarix, huquq kabi) bo'yicha, yetishmaydigan yangilarini (yangi bilimlar, faoliyat usullari) izlashga yo'nalganlik bo'yicha, muammolilik (juda jiddiy ziddiyatlar, o'rtacha, past) darajasi bo'yicha hamda ziddiyatlarning mazmunli tomonlari tipi va xarakteri bo'yicha (masalan, turmush tasavvurlari bilan ilmiy bilimlar o'rtasidagi)[3]. O'quvchilar tomonidan tarixdan bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish maqsadiga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish lozim: muammoli vaziyat o'quvchilarni ishlab chiqarish faoliyatiga asoslangan hamda muammoli topshiriq doimo tarixdan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga mos bo'lishi, yangi mavzuni tushuntirishdan oldin qo'yilishi, agar o'quvchilar muammoli vaziyatni hal eta olmasalar, ularga ayrim amallarni bajarishdagi ish usullarini ko'rsatish, zarur bo'lgan tarix bilimlarini eslatish, tarixga oid bilimlarni o'zlashtirish sifatining oshishi tarix o'qitishning rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni hal etish yo'li bilan amalga oshirilishi, u o'quv jarayonida, xulosa chiqarishga yordam beruvchi yo'llovchi savollar berishni ham nazarda tutishi lozim.

Tarix fanida muammoli vaziyatni o'rganish mazkur fan mavzusiga oid materialni tahlil qilishda o'quvchi shu vaziyatga o'zi kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Ushbu holatda o'quvchi qanday muammo borligi va qo'yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi

o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda ta'lim muassasalari amaliyotida muammoli ta'lim, muammoli o'qitish, muammoli vaziyatlarning qo'llanilishi o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga o'quvchilarda barcha fanlar, jumladan tarixdan bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshiradi, mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini hamda ularning mavjud bilimlarini boyitish bilan birga amaliy ko'nikma, malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063> .Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Tom I. T.: O'zbekiston NMIU, 2018. – 592 b.
2. Voistinova G.X. Zadachi na postroyeniye kak sredstvo formirovaniya priyomov myslitelnoy deyatelnosti uchashixsya osnovnoy shkolы: Diss. . kand. ped. nauk. M., 2000. - 183 s.
3. Kudryavsev T. V. Problemnoye obucheniye: ponyatiye i soderjaniye // Vestnik vysshey shkolы. -Moskva, 1984.- №4.- S.24-32.
4. Maxmutov M.I. Organizatsiya problemnogo obucheniya v shkole. - M.: Pedagogika, 1987. - 156 s.80-90-bb.